

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA SOLIQ IMTIYOZI VA SAMARADORLIK MASALALARINING NAZARIY TAHLILI

Urazov Komil Bahromovich
SamISI, Professor
Obloqulov Suxrob Usmon o'g'li
SamISI, magistr

Annotatsiya: Ushbu maqolada xo'jalik yurutuvchi subyektlarda audit tekshiruvlarini o'tgizish, shuningdek Soliq imtiyozining iqtisodiy samaradorligi, Kompleks audit samaradorligi modeli orqali izohlangan.

Kalit so'zlar: Audit, korxonalar, firma, kompaniya, soliq imtiyozi, audit tekshiruvlari, soliq siyosati, audit natijalari, soliq intizomi.

Kuchayib borayotgan raqobat sharoitida mulkdorlar tomonidan ham, nazorat qiluvchi organlar tomonidan ham holis xo'jalik nazoratining ro'li oshmoqda. Ishonchli moliyaviy hisobot oqilona iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkonini beradi, xavfi yuqori bo'lgan operatsiyalarga qo'l urishdan saqlaydi. Auditorning fikri kompaniyaning faoliyatiga bo'lgan ishonchni oshiradi hamda manfaatdor shaxslar – mulkdorlar, investorlar, bo'lg'usi mijozlar, yetkazib beruvchilar, hokimiyat organlarining biznesga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi.

Audit – korxonalar, firma, kompaniyalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirib boorish, ular hisobini ekspertizadan o'tkazishdir.¹⁸⁶

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi boshqa ko'pgina omillar bilan bir qatorda unga nisbatan yurgizilayotgan soliq siyosatiga ham bevosita bog'liq. Davlat soliq siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etish jarayonida iqtisodiy rivojlanishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan davlat soliq siyosati orqali makroiqtisodiy samaradorlikka erishishi mumkin.

Soliq siyosatini amalga oshirishda xizmat qiladigan soliq dastaklari (imtiyozlar, stavkalar, soliqqa tortiladigan bazani shakllanishi va boshqalar) kuchli ta'sir etuvchi va qiyin boshqariladigan soliq qurollaridir. Masalan, soliq to'lovchilarga keng soliq imtiyozlarini berish byudjetning daromadlarini shakllantirish nuqtayi nazaridan butunlay teskari oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Boshqa tomondan esa soliq imtiyozlarining har tomonlama bekor qilinishi tadbirkorlik faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va korxonalarining ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish sohalariga kapital qo'yilmalarning sezilarli kamayishiga sabab boladi. Buning oqibatida ba'zi tarmoqlardagi mavjud muvozanat buziladi.

Soliq islohotlarini amalga oshirishning asosiy maqsadi makroiqtisodiy samaradorlikka erishish hisoblanib, davlat soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda xizmat qiladigan bir qator yuqorida keltirilgan dastaklardan samarali foydalanishga harakat qiladi.¹⁸⁷

Soliq imtiyozining iqtisodiy samaradorligi formulasi quyidagicha:

$$E_{si} = \frac{\Delta YD}{SI}$$

Bu yerda:

¹⁸⁶ Shoalimov A.X., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. o'quv qo'llanma. -T.: Iqtisodiyot, 2012.

¹⁸⁷ Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. -T.: Moliya, 2003

E_{si} – soliq imtiyozining iqtisodiy samaradorligi
 ΔYD – imtiyoz natijasida olingan qo‘shimcha yalpi daromad.
 SI – berilgan soliq imtiyozlari summasi
Kompleks audit samaradorligi modeli

$$K_s = \frac{\Delta SB + \Delta YD + \Delta I}{SI}$$

Bu yerda:

K_s – soliq imtiyozining kompleks samaradorligi

ΔSB – qo‘shimcha soliq tushumi

ΔSD – qo‘shimcha daromad

ΔI – investitsiya o‘sishi

SI – berilgan soliq imtiyozlari

Soliq auditori korxonalar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinishini tekshirish va baholash jarayonidir. Uning asosiy maqsadi soliq hisob-kitoblarning to‘g‘riligi hamda soliqlarning o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishini aniqlashdan iborat. Soliq auditori orqali korxonalarda mavjud xatolar va soliq xavflari aniqlanadi. Shuningdek, audit natijalari soliq intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayon davlat byudjetiga tushumlarning barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida iqtisodiyotning barcha sohalari samarali rivojlanishi uchun xo‘jalik subyektlari hamkorlikda faoliyatini yuritishlari zarur hisoblanadi.¹⁸⁸

Auditor tomonidan tekshiruvdan oldin, tekshiruv jarayonida va uning natijalariga ko‘ra tayyorlangan va to‘plangan barcha ma‘lumot auditorlik ma‘lumoti hisoblanadi.¹⁸⁹ Ushbu ma‘lumotning bir qismi auditorlik dalillari tariqasida foydalanish uchun mumkin bo‘lgan hujjatlar yoki ulaming nusxalaridir. Shuningdek, auditor auditorlik xulosasiga asoslanadigan oqilona xulosalami shakllantirish maqsadida yetarli bo‘lgan tegishli auditorlik dalillarini olishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Auditorlik tekshiruviga ajratilgan vaqt juda ham cheklanganligi munosabati bilan, auditor barcha operatsiyalar va hujjatlarni tekshirishga qodir emas. Odatda, eng muhim bo‘lgan bo‘limlarda tekshiruv yoppasiga, operatsiyalarning asosiy qismi ustidan nazorat esa - tanlab olish usuli bilan amalga oshiriladi, natijada audit tezlashadi va arzonlashadi. Bundan tashqari, har bir auditorlik tashkiloti ish sifati ustidan nazorat qilish tamoyillari va qoidalarini, shuningdek, ulardan foydalanish jarayonlarini ishlab chiqishi va qabul qilishi lozim. Shuningdek auditning texnologiyasi yoritilgan bo‘lib, unda auditorlik tanlovi, auditning ish sifatini nazorat qilish, tekshiruv jarayonida xo‘jalik subyekti faoliyatiga doir ma‘lumotlar va dalillar to‘plash, shuningdek, tekshiruv natijalari bo‘yicha auditorlik hujjatlarini tayyorlash masalalariga oid savollarga aniq javob topish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.X. Shoalimov, SH.I. Ilhamov, SH.A. Tojiboyeva. *Iqtisodiy tahlil va audit Darslik - T.: IQTISODIYOT, 2016.-347 b.*

2. Akramov E.A. *Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. -T.: Moliya, 2003*

3. Shoalimov A.X., Tojiboyeva Sh.A. *Iqtisodiy tahlil nazariyasi. o‘quv qo‘llanma. -T.: Iqtisodiyot, 2012.*

¹⁸⁸ A.X. Shoalimov, SH.I. Ilhamov, SH.A. Tojiboyeva. *Iqtisodiy tahlil va audit Darslik - T.: IQTISODIYOT, 2016.-347 b.*

¹⁸⁹ Shoalimov A.X., Tojiboyeva Sh.A. *Iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. -T.: Lesson-press, 2016.*

4. Shoalimov A.X., Tojiboyeva Sh.A. *Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. -T .: Lesson-press, 2016.*

RAQAMLI HUKUMAT DOIRASIDA KO'RSATILAYOTGAN PULLIK ONLAYN XIZMATLARDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNING O'RNI

Umarova Durdona Abdumannabovna

Toshkent shahridagi xalqaro Vestminster universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Onlayn davlat xizmatlaridan foydalanishda moliyaviy savodxonlik muhim omil hisoblanadi. Fuqarolar elektron xizmatlar orqali turli davlat bojlari, jarimalar va xizmat to'lovlari amalga oshirishda to'lov tartibi, komissiyalar va xavfsizlik qoidalarini tushunishi zarur. Masalan, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali amalga oshiriladigan to'lovlarda foydalanuvchi to'lov turi, summasi va to'lov usuli haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bu esa noto'g'ri to'lovlar yoki moliyaviy xatoliklarning oldini olishga yordam beradi. Moliyaviy savodxonlik onlayn to'lovlarni amalga oshirishda xavfsizlikni ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Foydalanuvchilar shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, ishonchli to'lov platformalaridan foydalanish va shubhali internet manbalaridan saqlanish kabi qoidalarni bilishi lozim. Bu kabi bilimlar raqamli muhitda uchraydigan firibgarlik holatlarini kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 24 maydagi PF-76-son Farmoniga ko'ra, bir qator onlayn davlat xizmatlari to'lovlari nafaqat Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, balki tijorat banklari va to'lov tashkilotlarining mobil ilovalari orqali ham amalga oshirishga sharoit yaratib berildi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi raqamli hukumat doirasida pullik onlayn davlat xizmatlaridan foydalanishda fuqarolarning moliyaviy savodxonlik darajasining rolini aniqlash va ushbu ko'nikmalarni oshirish orqali onlayn to'lovlar jarayonini xavfsiz, samarali va tez amalga oshirish imkoniyatlarini o'rganishdir. Tadqiqot fuqarolarni raqamli to'lov tizimlaridan foydalanishga tayyorlash, moliyaviy xatoliklar va firibgarlik holatlarini kamaytirish va raqamli xizmatlardan foydalanish madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Tadqiqotda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, tijorat banklari va to'lov tashkilotlarining mobil ilovalari orqali amalga oshirilgan onlayn to'lovlar haqidagi ma'lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, moliyaviy savodxonlik bo'yicha mavjud davlat hujjatlari (PF-76-son Farmoni), ilmiy maqolalar va so'rovnoma natijalari asosida o'rganildi. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy usullar birlashtirildi: aholining raqamli moliyaviy ko'nikmalarini baholash uchun so'rovnoma va intervyular o'tkazildi, statistik ma'lumotlar tahlil qilindi va mavjud amaliyotlarning samaradorligi ko'rsatkichlari o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, aholi, ayniqsa qishloq hududlari va ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar orasida elektron hukumat xizmatlaridan foydalanish bo'yicha savodxonlik darajasi pastligicha qolmoqda. Bu holat raqamli davlat xizmatlaridan keng foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Ikkinchidan, ta'lim sifati va raqamli ko'nikmalar integratsiyasining yetarli emasligi. Ta'lim sifati hamda raqamli ko'nikmalar o'rtasidagi integratsiyaning yetarli darajada emasligi inson kapitali rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi muammoli masalalarni hal etishda quyidagilar taklif etiladi: